

“MILLIY VALYUTA BARQARORLIGINI TAMINLASHDA MARKAZIY BANK TOMONIDAN OLIB BORILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR”

Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-kurs magistratura bo‘limi

MGF-10 guruh talabasi

Annotatsiya: Markaziy bank bank tizimining bosh banki bo‘lib, pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi va milliy pulning barqarorligini ta‘minlovchi muassasadir. Markaziy bank bank tizimida tartibga soluvchi bo‘g‘in hisoblanadi, shuning uchun uning faoliyati pul muomalasini mustahkamlashga, milliy valyuta birligining barqarorligini ta‘minlashga va saqlashga; mamlakat bank tizimining rivojlanishiga va mustahkamlanishiga; hisob-kitoblarni samarali va to‘xtovsiz amalga oshirishni ta‘minlash bilan bog‘liq. Har qanday davlatda Markaziy bank hukumat banki bo‘lib hisoblanadi va uning mavqei o‘sha davlat qonunlari bilan belgilanadi. Ushbu maqolada Milliy valyuta barqarorligini taminlashda Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: markaziy bank, siyosat, emission bank, ma‘muriy-buyruqbozlik.

Ma‘lumki, iqtisodiyotni tartibga solishda davlat bosh islohotchi vazifasini o‘taydi. Biroq, davlatning ushbu funksiyasini ma‘muriy- buyruqbozlik tizimidagi davlatning iqtisodiyotdagi gegemonligi tushunchasi bilan adashtirmaslik kerak. Bozor iqtisodiyotining asosiy qoidasi shuki, davlat iqtisodiyotning rivoji uchun turli xil siyosatlarni amalga oshiradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat siyosatining asosiy ko‘rinishlari monetar va fiskal sohalarida amalga oshiriladi. Qurolni ishlatish uchun qo‘l kerak bo‘lganidek, davlat o‘z siyosatini ma‘lum organlar orqali amalga oshiradi. Ushbu organning siyosatni amalga oshirishdagi vakolatlari tegishli qonunlar orqali belgilab beriladi. Mavzudan uzoqlashmagan holda monetar siyosatni amalga oshiruvchi organ – Markaziy banklar haqida so‘z yuritsak. (aksariyat mamlakatlarda monetar siyosatni Markaziy bank amalga oshirgani uchun, biz ushbu organi Markaziy bank deb atashga qaror qildik) Markaziy banklarning tarixan paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishiga e‘tibor qiladigan bo‘lsak, ularning tijorat banklaridan ancha kech paydo bo‘lganligiga amin bo‘lamiz. Markaziy banklarning yuzaga kelishiga asosiy sabab bank tizimining butunlay ishdan chiqishi darajasiga etishi, ya‘ni har bir bank o‘zicha va o‘zi belgilagan mikdorda muomalaga turli xildagi hamda turli nominaldagi pul belgilari chiqarishi bilan yuzaga kelgan. Bu o‘z navbatida bevosita muomalada tovar va moddiy qimmatliklarga nisbatan pulning bir necha barobar ko‘payishiga va oqibatda nafaqat bank tizimining, balki butun iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib kelgan. Bu esa emission banklarning markazlashtirilishiga olib kelgan. Natijada, emissiya qilish huquqini qo‘lga kiritgan bankning boshqa banklarga nisbatan barqaror va mustahkam bo‘lishi ma‘lum bo‘ldi. Bu orqali bank tizimida mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan sof raqobat yo‘qotilib, ko‘zlangan natijaga erishilmadi. Shundan so‘ng, iqtisodchi olimlar tijorat banklari faoliyatini boshqaradigan va faoliyati jihatdan ulardan farq qiladigan bankni vujudga keltirish zarurligini anglab etdilar. Shu tariqa markaziy banklarning vujudga kelishiga va ularning faoliyatiga zaruriyat tug‘ildi. Shunday qilib, birinchi Markaziy bank 1656 yilda Shvesiyada, undan so‘ng 1694 yilda Angliyada vujudga keldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki o‘z faoliyatini 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunga asosan olib boradi. Qonunda Markaziy bankning maqomi, maqsadi va vazifalari,

funksiyalari, faoliyat tamoyillari o'z aksini topgan. Ushbu qonunning 1-moddasida Markaziy bankning maqomi qayd etilgan bo'lib, unda: "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs bo'lib, faqat davlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki – iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa, o'z xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega", deb yozilgan. Shuningdek, Qonunda "Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlashdan iborat" deyilgan. Narxlarning barqarorligini ta'minlash va milliy pul birligini xorijiy valyuta bozorlarida ayirboshlash kursining barqaror bo'lishiga erishishni ko'zda tutuvchi bu maqsad davlatning iqtisodiy siyosatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'rnini juda muhim ekanligini belgilaydi. Milliy valyuta barqarorligini ta'minlash uchun Markaziy bank qator muhim vazifalarni hal etadi. Ulardan eng asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- * Monetar siyosatni va valyutani boshqarish siyosatini shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

- * O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini yaratish;

- * Banklar faoliyatini tartibga solish va banklarni nazorat qilish;

- * O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zaxirasini saqlash va uni boshqarish;

- * Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini uyushtirish.

Markaziy bank faoliyatining mazmuni uning funksiyalarida to'laroq namoyon bo'ladi. Markaziy bankning har bir funksiyasi, uning mamlakat bank tizimining bosh bo'g'ini, iqtisodiyotni pul-kredit orqali tartibga soluvchi davlat organi sifatidagi faoliyatining aniq bir tomonini aks ettirishi kerak. Davlatlarning bank qonunchiliklarida o'zaro jiddiy farqlar bo'lsada, Markaziy bankning funksiyalari va vazifalari borasida ko'pgina umumiy o'xshashliklar mavjud. Bu o'xshashliklar ayniqsa, bir qator rivojlangan davlatlarning markaziy banklari funksiyalarida namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlar markaziy banklarining deyarli barchasi bajaradigan an'anaviy funksiyalarga quyidagilar kiradi:

- * Emissiya funksiyasi;

- * "Banklarning banki" funksiyasi;

- * "Davlatning banki" funksiyasi;

- * Oltin-valyuta zahiralari boshqarish funksiyasi. Umuman olganda rivojlangan mamlakatlar Markaziy banklari iqtisodiyotga ta'sir qilishning ma'lum bir usullaridan foydalanadilar. An'anaviy tarzda ularga quyidagilar kiradi:

- * diskont (hisob) va garov siyosati;

- * majburiy zahiralar siyosati;

- * ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati;

- * depozit siyosati;

- * valyuta siyosati va shu kabilar

Lekin standart usullar yig'indisining tarkibi va ulardan foydalanish turli davlatlar banklarining qator shart-sharoitlariga bog'liq, ularning qo'llanilishi ham har bir davlatda turlicha bo'lishi mumkin. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Italiya va Kanada kabi iqtisodiy jihatdan o'ta taraqqiy etgan va rivojlangan moliya bozoriga ega davlatlarda hamda Evropa mamlakatlarida pul massasini va pul bozorini tartibga solishda monetar siyosatning bilvosita instrumentlaridan keng foydalaniladi. Bunday sharoitda ushbu davlatlar pul massasini, katta miqdordagi moliyaviy resurslar harakat qilayotgan moliya bozorini va xorijiy investitsiyalarni boshqarishda katta tajribaga ega. Ushbu davlatlarda va umuman jahon iqtisodiy amaliyotida bugungi kunda pul massasini va pul bozorini samarali boshqarib turish uchun ochiq bozordagi operatsiyalar, hisob stavkasi siyosati (diskont siyosati) va majburiy rezervlar me'yorini o'zgartirish kabi bilvosita instrumentlardan foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki esa o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

1. Iqtisodiyotni pul-kredit dastagi yordamida boshqarish;
2. Hisob-kitob va pul o'tkazish operasialarini bajarishni yo'lga qo'yish;
3. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish;
4. Tijorat banklarining kassa zahiralari jamg'arish va saqlash;
5. Rasmiy oltin-valyuta zahiralari saqlash;
6. Hukumat uchun hisob-kitob va kredit operasialarini bajarish;
7. Tijorat banklariga kredit berish;
8. Pul emissiyasi.

Markaziy bank hukumatning rasmiy pul-kredit instituti sifatida namoyon bo'ladi. Markaziy bank orqali davlatning iqtisodiy siyosati, yanada aniqrog'i davlatning monetar siyosati olib boriladi.

Monetar siyosat – pul-kredit tizimining iqtisodiyotni faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishiga jiddiy tarzda ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga tayanadigan iqtisodiy siyosat bo'lib hisoblanadi. Monetar siyosat valyuta kursiga, foiz stavkalariga, bank tizimining umumlikvidlilik hajmiga va tabiiyki butun iqtisodiyotga ta'sir o'tkazish uchun yo'naltiriladi. Bu vazifalarni echishda iqtisodiyotni barqaror o'sishini hamda ishsizlik va inflyasiyani kamayishini ta'minlash maqsadi yotadi. Markaziy bank monetar siyosati ikkita asosiy siyosatdan iborat bo'lib, bular: pul-kredit siyosati va valyuta siyosatidir. O'z navbatida valyuta siyosati pul-kredit siyosatiga bevosita bog'liq bo'lib, ikkala siyosat ham davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda valyuta va pul-kredit siyosatini ajratishmaydi va bittagina termin – “Monetar siyosat” deb atashadi. Monetar siyosatning asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida inflyasiya sur'atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat. Monetar siyosatning asosiy maqsadidan kelib chiqib oraliq va pirovard maqsadlarni ajratish mumkin. Monetar siyosatni amalga oshirishning oraliq maqsadlari milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash, muomaladagi pul massasi hajmini tartibga solish, moliya tizimining barqarorligini ta'minlash bo'lsa, pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni, baholarning hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlashdan iborat. Monetar siyosatning oraliq maqsadlariga erishish orqali pirovard maqsadlarga erishishni mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 2005
2. yil 28 mayda tasdiqlangan 610-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ochiq
3. valyuta pozitsiyasini o'tkazish Qoidasi”
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlash va
5. yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T.: “O'zbekiston”,
6. 2005y.
7. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investisiya va
8. moliyaviy barqarorlik to'g'risida. - T.: O'zbekiston, 2005.
9. Abdullaeva. Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T., «Moliya», 2002.
10. Balabanov I.T. Risk-meneditment.- M.: Finansy i Statistika, 1996.
11. Algin A.P. Risk i ego rol v obshchestvennoy jizni, - M.Mysl 1989
12. Batrakova L.G. “Analiz presentnoy politiki kommercheskogo banka”,
13. Moskva “Logos”, 2002.
14. Belyakov A.V. Bankovskie riski: problemy ucheta, upravleniya i
15. regulirovaniya. – M.: Izdatelskaya gruppa «BSD-press», 2003.